



**BEL-DUMG‘AZA SOHASI DISK CHURRALARINI  
TASHXISLASHDA KLINIK VA MRT KO‘RSATKICHLARINING  
QIYOSIY TAHLILI**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

*Maxramova Mushtariy*

*Toshkent sh*

*Maxramova Mushtariy Anvar qizi*

+998200035634, [mushtariymaxramova83@gmail.com](mailto:mushtariymaxramova83@gmail.com)

**Dolzarbligi.**

Bel-dumg‘aza sohasi disk churralari (BDSCH) tayanch-harakat tizimi kasalliklari orasida 25% dan 40% gacha ulushni tashkil etib, oshqozon-ichak patologiyalaridan keyingi o‘rinlarda turuvchi ijtimoiy-iqtisodiy muammodir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, rentgenologik tekshiruvlarda bemorlarning faqat 15-20 foizida aniq churra belgilarini ko‘rish mumkin bo‘lsa, MRT bu ko‘rsatkichni bir necha barobar oshiradi. Agar BDSCH 3-5 yil davomida to‘g‘ri tashxislanmasa va davolanmasa, bu holat 60-70% holatlarda surunkali radikulopatiya va hayot sifatining keskin pasayishiga olib keladi. Shu sababli, MRTning 3D va yuqori aniqlikdagi rejimlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

**Maqsadi:** Bel og‘riqlari va ishias bilan og‘rigan bemorlarda an’anaviy klinik ko‘rik natijalarini MRTning vizual ko‘rsatkichlari bilan solishtirish hamda ushbu usulning diagnostik samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash.

**Materiallar va usullar:** Tadqiqot davomida 104 nafar bemor (58 erkak, 46 ayol) kompleks tekshiruvdan o‘tkazildi. Tekshirishlar 1.5 va 3.0 Tesla quvvatli MRT apparatlarida, T1-WI, T2-WI va Myelografiya rejimlarida olib borildi. Taqqoslash uchun klinik-nevrologik testlar (Laseg, SLR, son nervi



choʻzilishi) natijalari olindi. Olingan maʼlumotlar  $\chi^2$  (xi-kvadrat) va Student t-kriteriylari yordamida statistik tahlil qilindi.

**Natijalar:** Olingan natijalarga koʻra, bemorlarning 84 foizida pastki oyoqlarga irradiatsiya beruvchi oʻtkir bel ogʻrigʻi, 48 foizida esa paresteziya (sezgi buzilishi) aniqlandi.

MRT tekshiruvi natijasida quyidagilar maʼlum boʻldi:

Bemorlarning 42 foizida L5 va 22 foizida S1 nerv ildizlarining disk churrasi bilan siqilishi (kompresiyasi) tasdiqlandi.

66% holatda skoliotik deformatsiya va umurtqa pogʻonasi harakatining cheklanishi kuzatildi.

MRT skanerlashda disk churralarining gorizontall joylashuvi: 39% holatda markaziy (medial), 45% holatda paratsentral va 16% holatda foraminal ekanligi aniqlandi.

Laseg (SLR) testi 41-70 gradus burchak ostida ijobiy natija bergan bemorlarning 98 foizida MRTda disk sekvestratsiyasi va ekstruziyasi vizualizatsiya qilindi.

Anʼanaviy tekshiruvlarda aniqlanmagan patologiyalar MRTning 3D rekonstruksiya rejimida 26% qoʻshimcha aniqlik bilan oʻz tasdigʻini topdi.

**Xulosa:** Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, klinik simptomlar va MRT koʻrsatkichlari oʻrtasida kuchli korrelyatsiya bogʻliqligi ( $p < 0.05$ ) mavjud. MRT tekshiruvi nafaqat disk churrasi mavjudligini, balki uning hajmi (millimetrlarda) va neyral tuzilmalarga taʼsirini 96-98% aniqlikda koʻrsatib beradi. Bu esa oʻz navbatida asossiz jarrohlik amaliyotlarini kamaytirishga va maqsadli davolash taktikasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.